

MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDA O'QUVCHILAR TEXNIK IJODKLORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Pardabaev Jasur,
"Yangi asr" universiteti o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabdan tashqari ta'limda o'quvchilar texnik ijodkorligini rivojlantirish omillari yoritilgan. Maqolada xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlilidan foydalanildi. Maqoladan olingan natijalar pedagogika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Ijodkor; kasbiy tayyorgarlik, konformizm, faollik, uzluksiz, maktabdan tashqari ta'lim, ijodiy g'oya, omillar.

ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА УЧАЩИХСЯ ВО ВНЕКЛАССНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Пардабаев Джасур,
преподаватель Университета «Янги Аср», PhD

Аннотация. В данной статье рассматриваются факторы развития технического творчества учащихся во внешкольном образовании. В статье использован анализ зарубежной и отечественной литературы. Результаты статьи могут быть использованы в научных исследованиях в области педагогики.

Ключевые слова: креатив, профессиональная подготовка, конформизм, активность, непрерывное, внешкольное образование, креативная идея, факторы.

FACTORS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS' TECHNICAL CREATIVITY IN EXTRACURRICULAR EDUCATION

Pardabaev Jasur,
teacher of «Yangi Asr» University, Ph.D

Annotation. This article discusses the factors of the development of technical creativity of students in extracurricular education. The analysis of foreign and domestic literature was used in the article. The results of the article can be used in scientific research in the field of pedagogy.

Keywords: creativity, professional training, conformity, activity, continuous, extracurricular education, creative idea, factors. муҳандислик кўникмалари

Jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichida modernizatsiya va innovatsion rivojlanish tendensiyalari avj olmoqda. XXI asrda innovatsion jarayonlar ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida maydonga keldi. Jahon xo'jaligining globallashuvi, raqobatning kuchayishi sharoitida innovatsiyalar oqimi va ko'lami tobora kengayib, jamiyat va inson manfaatlari hamda ehtiyojlarining ta'minlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatmoqda.

Jahon bozorida texnologik jihatdan ilg'or, bilim talab qiladigan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan davlatlarning zamonaviy siyosati bugungi kun o'quvchisi egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga yangi vazifalar qo'ygan holda o'quv jarayonini qayta ko'rib chiqishga zamin yaratmoqda. Ushbu tendensiyalarning namoyon bo'lishi keng texnologik parklarni ochishda, texnologik ishlab chiqarishga yo'naltirilganlikda, davlat iqtisodiyotini rivojlantirish dasturlarini tasdiqlashda va natijada ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning shakllangan kontsepsiyasida namoyon bo'ladi[1].

Ta'limni modernizatsiyalashning asosiy maqsadi mehnat bozorida raqobatbardosh, jahon standartlari asosida samarali ishlashga qodir, kasbiy o'sishga tayyor, har kimning tegishli ma'lumot olish ehtiyojlarini qondiradigan malakali mutaxassisni tayyorlashdan iborat. Shunday qilib, ta'lim mazmunida bo'layotgan o'zgarishlar, to'plash funksiyasidan (o'quvchining ma'lum bir bilim darajasini shakllantirish uchun) yangi kasbiy bilimlarni o'zlashtira oladigan, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda moslasha oladigan va o'qishdan keyin rivojlanishini davom ettirishga imkon beradigan va uzluksiz ta'lim nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladigan shaxsni rivojlantirish funksiyasiga yo'lga qo'yilmoqda. Bugungi kunga kelib shakl va mazmun jihatidan xilma-xil, ammo umuman olganda bitta maqsadga kasb – hunarga o'rgatishga va kelajakda mutaxassislar uchun professional manzarani yaratishga qaratilgan darsdan tashqari ta'lim modelini amalga oshirish bo'yicha katta tajriba to'plangan[2].

Ta'lim va o'qitish jarayonida o'quvchilar zamonaviy sanoat, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish asoslari, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohalari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishlari kerak.

Shu bilan birga, zarur ko'nikma va qobiliyatlarni, u yoki bu kasbga qiziqishni rivojlantirishlari zarur. O'quvchilar kasbni maqsadli tanlash va o'rta maktabni tamomlash paytida uzluksiz ta'lim olishlari uchun maktabdan tashqari tegishli o'quv muassasasiga jalb qilish ishlari zarur, chunki darsdan tashqari mashg'ulotlar ularning kasb tanlashida muhim rol o'ynaydi[4]. Bunday faoliyatning mazmuniyo'nalishi, uning tashkiliy shakllari va usullari eng muhim ahamiyatga ega. Shuni yodda tutish kerakki, o'quvchilarning texnik ijodidagi yangilik sub'ektivdir. O'quvchilar ko'pincha ixtiro qilingan va ishlab chiqarilgan mahsulotni yaratishadi. Ijodiy faollik o'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan tanqidiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilarni yoshligidan boshlab ijodiy faoliyatga jalb etish, qiziquvchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligi, xotira, o'z-o'zini baholash, idrokning rivojlanishi va tanqidiy fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga olib keladi. Yosh o'tgan sayin bu sifatlar mustahkamlanib, takomillashib boradi va shaxsiyatining ajralmas xususiyatlariga aylanadi[5].

Ijodiy faoliyatning muhim omili ijodiy jarayonning uzluksizligidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, epizodik ijodiy faoliyat samarasiz. Bu ma'lum bir ishni bajarishga qiziqishni uyg'otish, ish paytida kognitiv faollikni oshirish va hatto muammoli vaziyatning paydo bo'lishiga hissa qo'shishi mumkin. Biroq epizodik ijodiy faoliyat hech qachon kasb va mehnatga barqaror ijodiy munosabatni, ixtiro va rasionalizatorlikni, eksperimental tadqiqot ishlarini, shu bilan birga, shaxsning ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishga bo'lgan intilishni rag'batlantirmaydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, butun yil davomida doimiy, tizimli ijodiy faoliyat ijodiy ishlarga barqaror qiziqishni rivojlantirishni ta'minlaydi[3].

Ijodkor shaxsning xususiyatlarini tarbiyalashda ijodiy ishning samaradorligi katta ahamiyatga ega. Shu sababli texnik qurilmalarni yaratishga, uskunalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan muvaffaqiyatli ishlar alohida ahamiyatga ega. Ijodiy sa'y-harakatlarning iqtisodiy samarasi, ijodiy faoliyat uchun kuchli rag'batdir. Tajribali to'garak rahbarlari amaliy faoliyatida ishlab chiqarish bilan aloqa o'rnatishadi va ishlab chiqarish bilan tanishib, bunda sanoat uskunalarini, asbob-uskunalarini, texnologik jarayonlarini takomillashtirish, texnik muammolarni shakllantirish va ularni rivojlantirish bilan bir qatorda, ko'pincha innovasion takliflar va hatto ixtiro yechimlarni topish imkoniyatini topishadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarish sohasidagi ijodiy texnik faoliyat dizayni, texnologik, tashkiliy, iqtisodiy muammolarni hal qilishdan iborat. Maktabdan tashqari ta'limning vazifasi yoshlarni ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatga tayyorlashdan iborat bo'lganligi sababli, ko'pchilik olimlar o'quvchilarning texnik ijodining mazmunini huddi shu tarkibiy qismlarga ega bo'lgan holda aniqlaydilar. Ushbu tarkibiy qismlar, o'quvchilarning dizayn va texnologik faoliyat bosqichlariga juda yaqin hisoblanadi.

Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, texnik ijodkorlik deganda maqsadga yo'naltirilgan inson faoliyati tushuniladi, buning natijasi mutlaqo yangi texnik ob'ektlarni yaratish, shuningdek mahsulotlar, asboblari, texnologik jarayonlar, mehnatni rejalashtirish va hokazolarni takomillashtirish hisoblanadi. O'quvchilarning texnik ijodkorlik natijasi asosan o'quvchilar tomonidan qilinadigan ishlarning sub'ektiv yangiligi sifatida tushuniladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning texnik ijodini rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan sabablarni aniqlash juda muhimdir.

Mahalliy va xorijiy psixologlar tamonidan ijodiy jarayonga, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan bir qator omillar mavjud bular:

1. Bir necha sabablar umumiy holda "konformizm" nomi bilan umumlashtirilgan (shaxsning o'ziga xos xususiyatlari, xatti-harakatlari, moslashuvchanlik, taqlid qilish, hamma qatori bo'lishni istash, o'quvchilik davridayoq shaxsiy mustaqillikning yo'qligi, e'tiborsizlik, tanqid natijasida o'quvchi ruhini shikastlanishi).

2. O'zlarining g'ayrioddiy ijodiy g'oyalarini ifoda etishda uyatchanlik (ichki va tashqi qarshilikning paydo bo'lishi).

3. Faollik, harakatchanlikning yo'qligi va fikrlashning yangi talablariga o'ta olmasligi.

4. Muayyan muammoga tezda yechim topishga urinmaslik.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarg'oyani har xil murakkablik darajasida qiziqish bilan ishlaydi. Texnik va dizayn ishlarining uzluksizligi bilan o'quvchilarning qiziqishi nafaqat yo'qotilmaydi, balki yanada kuchayadi. Turli darajadagi murakkablikdagi mehnat vositalarini loyihalashda uzluksizlikni kuzatish mumkin, asboblari va mexanizmlarning dizayni, dizayn ob'ektlarini tanlash modelini tavsiflaydi[6].

O'quvchilarning ijodiy faoliyati bir qator xususiyatlarga ega.

1. Bir nechta istisnolardan tashqari, ular ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmagan yangi mahsulotlarni yaratadilar, ya'ni ular o'zlari uchun "yangi narsalar"ni yaratadilar, garchi jamiyat bu yangi narsani allaqachon bilsa ham. Binobarin, bunday yangi narsa sub'ektivdir, ammo psixologiya nuqtai nazaridan o'quvchilarning ishi ijodiy xarakterini yo'qotmaydi, chunki bu jarayon davomida o'quvchilar o'zlari

uchun kashfiyot qilishadi. O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, texnik ijodkorlikka o'rgatish uchun yangilikning tabiati (ob'ektiv yoki sub'ektiv) muhim emas[5].

2. O'quvchilar texnik ijodiyotining ta'limiy tabiati ijodiy faoliyat natijalarini emas, balki unga tayyorgarlik ko'rishdan boshlanadi. O'quvchilar ijodiy faoliyatining asosiy manbai o'quv jarayonida mavjud bo'lgan shaklda to'plangan tajriba bo'lishi kerak.

3. O'quvchilarning ijodiy faolligi ko'pincha mustaqil faoliyatning past darajasi bilan ajralib turadi. O'quvchilarning texnik ijodiy faoliyatining yuqoridagi xususiyatlaridan ko'rinib turibdiki, faqat tizimli va aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik rahbarligi ostida o'z maqsadiga erishish uchun o'qituvchining muayyan harakatlari zarur:

1.) O'quvchilarning mehnat jarayonida mustaqil harakatlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish. Shaxsning barcha sifatleri va xususiyatlarining shakllanishi faoliyat jarayonida yuzaga keladi, degan mashhur tezis yosh o'quvchilarning ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ham tegishli. Shu bilan birga, vazifalarni bajarishda faollik yetarli darajada yuqori bo'lishi kerak intellektual faoliyat darajasi. Bu o'quvchilar mehnat jarayonida mustaqil harakatlar qilish imkoniyatini nazarda tutadi. O'quv seminarlarida sinfda ushbu vazifani o'quv topshiriqlarini shakllantirish orqali muvaffaqiyatli hal qilishi, o'quvchilarning harakatlarini to'liq tartibga solishni istisno qiladi.

2.) O'quvchilarni ijodiy g'oyani shakllantirishga yoki ularga ijodiy savol va topshiriqlarni to'g'ridan-to'g'ri taqdim etishga yo'naltirish.

Moddiy ishlab chiqarish sohasidagi inson faoliyati sharoitida ijodiy g'oya yoki vazifa ijtimoiy hayot talablari, yangi mehnat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj ta'siri ostida vujudga keladi. To'garaklar faoliyati, tarbiyaviy ish sharoitida o'quvchilar ba'zi hollarda mustaqil ravishda o'zlarining ijodiy kuchlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan muayyan vazifalar mavjudligini tushunishlari zarur. Shu bilan birga, o'quvchilarning aksariyati bunday vazifalarni mustaqil ravishda amalga oshirishda qiyinchiliklar paydo bo'lmasligi uchun, ular duch keladigan vazifalar asosan tasodifiy bo'lishi, natijalarini baholash, ish-harakatlarni namoyish etadigan tadbirlarga jalb qilinishi zarur.

3.) O'quvchilarni ijodiy muammolarni hal qilish uchun umumiy, nazariy va politexnik bilimlarni jalb qilishga va qo'llashga rag'batlantirish.

Ma'lum bilim, ko'nikma va malakalar asosida ijodiy faoliyat olib borish o'quvchilarni har doim ham o'z bilimlarini amalda qo'llay olishini taminlamaydi va har doim ish topshirig'ini bajarish jarayonida qiyinchiliklarni mustaqil ravishda yengib o'tolmaydi. Turli pedagogik usullardan foydalanish o'quvchilarning o'z bilimlarini amalda qo'llashlari uchun imkon yaratadi.

4) O'quvchilarning ijodiy tushdagi vazifalarni bajarishda ularning intellektual faolligini rag'batlantirish uchun turli xil pedagogik usullardan foydalanish.

To'garaklar faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatdiki, yuqoridagi shartlarni hisobga olgan holda, o'quvchilarning faollik darajasi har doim ham bir xil emas, chunki ular doimo o'zlarining psixofizik kuchlarini ijodiy muammolarni hal qilish uchun bir xil darajada safarbar etmaydilar. Xususan, o'quvchilar diqqatni bir mavzudan ikkinchisiga osongina almashtiradilar, katta qiziqish bilan yangi topshiriqlarni bajaradilar, ish paytida ehtiyotkorlik bilan harakat qiladilar, qiyinchiliklarni yengishda ko'proq kuch sarflaydilar.

Adabiyotlar ro'yxati

Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий - методик асослари.: Пед.фан.докт. ... дисс. - Т.: 2007. - 45 б.

Рахмонва В.Қ. Узлуксиз таълим тизими узвийлигини таъминлашнинг кластер технологиялари.: Монография. - Т.: НАВРЎЗ, 2014. - 94 б.

Байденко В.И. Болонский процесс: Результаты обучения и компетентностный подход (книга- приложение 1) / Под науч. ред. д-ра пед. наук, профессора В.И. Байденко. – М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2009. – 536 с.

Pardabaev J.E. "STEAM" - Education as an innovative approach to the development of vocational training for students" // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852

Педагогический кластер в основе формирования «самообразующейся» личности школьника: Методические рекомендации. Часть 1 / Е. А. Акиншина, Н. Н. Суртаева, Т. И. Маркова и др. - СПб.: Экспресс, 2012. – 160 с

Jonathan Sallet and Ed Paisley Innovation Clusters Create Competitive Communities. - Huff Post Social News September 21, 2009.